



Yoshlar o'rtasida mamlakatimiz boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib etish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish zarur.
Shavkat MIRZIYOYEV

IJODIY PARVOZ

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, axborot gazetasi

Bugun tinch va osoyishta kunlar uchun jon fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini yod etish, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan, el-u yurt tinchligi va ravnaqi yo'lida xizmat qilgan keksalarni e'zozlash ma'naviy hayotimizning ajralmas qismiga aylangan.

E'ZOZLAGAN E'ZUZ TOPAR...

9-may yurtimizda Xotira va qadrlash kuni sifatida mana bir necha yillardan buyon keng nishonlab kelinadi. Ulug' bayram arafasida, nafaqat, ikkinchi jahon urushi qatnashchilari balki yurtimizdagi barcha yoshi ulug' keksa insonlar – otaxon va onaxonlarimiz yanada e'zoz topadi, ularning hol-ahvolidan xabar olinadi.

To'g'ri, bu aziz insonlarni asrab-avaylash, ularning sog'-salomat va mazmunli umr kechirishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berish – hammamizning insoniy burchimizdir.

onlarga boy bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Buni ularning bir-birlariga boqib turgan quvonchli ko'zlari, tabassumga to'la lablaridan va o'zaro suhbatlaridan ham bilib olish mumkin.

Tadbirni institut rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev o'zining nuroniylarimizni e'tirof etgan samimiy so'zlari bilan ochib berdi.

– O'zbekistonda Xotira va qadrlash kunining nishonlanayotgani zamirida juda katta ma'no-mazmun bor, – dedi institut



Mamlakatimiz bo'ylab Xotira va qadrlash kuni keng nishonlanayotgan bir paytda, kuni kecha O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ham bayram munosabati bilan yoshi ulug' nuroniylarimiz, bir necha yillar avval shu oliy ta'lim dargohida faoliyat yuritgan, bugun esa qarilik gashtini surayotgan keksa pedagoglar uchun iftorlik dasturxonini yozildi.

Uchrashuv keksalarimiz uchun chin ma'noda diydor lahzasi va quvonchli

rahbari. – Darhaqiqat, xotira bugungi avlodni tinchlikni qadrlashga o'rgatadi. Ularda keksalarga hurmat, vatanidan faxrlanish hislarini tarbiyalaydi. Ikkinchi jahon urushi butun insoniyat hayotida chuqur og'riqli iz qoldirgan. Ana shunday damlardan mardonavor o'tgan, o'z matonati va shijoati bilan vatan, oilasi oldidagi burchini sharaf bilan ado etgan insonlar hayoti biz uchun o'rnak bo'lmog'i kerak.

O'ZDSMI Matbuot xizmati



9-may — Xotira va qadrlash kuni

KEKSALARI QADR TOPGAN YURT

**Keksalari qadr topgan Yurt,
Alla aytib, ottirar tongni.
Dasturxonga to'kib noz-ne'mat,
Keltirarlar, chorlab mehmonni!**

**Keksalari qadr topgan Yurt,
Bog' yaratar cho'l-u, sahrovan.
Har bir kunga shukrona aytib,
Ishni boshlar, e'zgu duodan.**

**Keksalari qadr topgan Yurt,
Saxovat-u, mehrda tanho.
O'ZBEK degan buyuk millatdan,
Ibrat olar bugun keng dunyo!!!**

**Keksalari qadr topgan Yurt,
Katta yo'lda ketmoqda dadil,
Yurtboshining izidan borib,
Elim, buyuk Xalq bo'layotir!!!**

Bobur UBAYDULLAYEV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Yoshlar ittifoqi yetakchisi

FOLKLOR, TIL VA MADANIYAT MASALALARINI ILMIY O'RGANISHDA FAN VA INNOVATSIYALAR UYG'UNLIGI AMALDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan kitobxonlik madaniyati, adabiyot va san'at sohasini rivojlantirishga qaratilgan qator qaror va farmoyishlari, 2018-yil 1-noyabr kuni "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida" qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-fevraldagi 133-F-sonli Farmoyishi, Prezidentimizning 2017-yil 3-avgustda ijodkor ziyolilar bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi hamda 2018-yil 28-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PQ-4083-sonli qarori, mazkur yilning 19-mart kuni o'tkazilgan videoselektordagi Prezidentimizning yoshlarni tarbiyalashdagi muhim 5 ta tashabbusda ko'rsatilgan vazifalar, ya'ni, yoshlarni san'atga va madaniyatga qiziqishlarini oshirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida 2019-yil 7-may kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o'rganishda fan va innovatsiyalar uyg'unligi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazildi.

Konferensiyada 22 nafar xorijiy olimlar, 200 nafardan ortiq Respublika oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, O'zRFA Ilmiy tadqiqot institutlarining yetakchi ilmiy xodimlari, soha yo'nalishi tashkilotlarining mutaxassislari, doktorant

va magistrlar, yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi.

Ilmiy-amaliy konferensiyaning maqsadi ming yildan ortiq tarixga ega bo'lgan til, folklor, adabiyot va san'atimizni chuqur o'rganish, folklorshunoslik, til, adabiyot va madaniyat sohasini rivojlantirishga o'z

hissasini qo'shgan allomalar, ijodkorlar merosini yoshlar qalbiga singdirish, Prezidentimiz ilgari surayotgan ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni o'rganishda yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish g'oyasini amalga oshirishdan iborat.

Konferensiyaning vazifasi – mamlakatimiz va xorijda xalq og'zaki ijodi, folklor, til va madaniyat masalalari borasida tadqiqotchilar tomonidan erishilgan natijalarni qiyosiy tahlil qilish, ularni tizimli o'rganilishida muhim yo'nalishlarni aniqlash, shuningdek, mamlakatimizdagi madaniyat va san'at yo'nalishlaridagi oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy tadqiqot institutlarida olib borilayotgan dolzarb mavzulardagi tadqiqotlarni rivojlantirishga ko'maklashish hamda yoshlarni milliy

Davomi 2-sahifada

FOLKLOR, TIL VA MADANIYAT MASALALARINI ILMIY O'RGANISHDA FAN VA INNOVATSIYALAR UYG'UNLIGI AMALDA

Davomi. Boshi 1-sahifada.

va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat. Ushbu vazifadan kelib chiqib olimlar tomonidan mustaqillik davri folklor san'atining o'ziga xos xususiyatlari hamda o'zbek folklorshunosligida olib borilayotgan izlanishlar, o'zbek xalq dostonlarini dunyo folkloriga qiyosan tadqiq etish, o'zbek tili va adabiyoti masalalariga innovatsion yondashuv, til va madaniyat masalalari doirasida fikrlar almashindi.

Yalpi majlis moderatorligini O'zDSMI rektori, professor I.Yo'ldoshev olib bordi. Institut rektori konferensiya ishtirokchilarini tabriklab, bugungi kunda Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan Res-

tabriklab, folklor, til va madaniyat masalalari bo'yicha olib borilayotgan islohotlar haqida o'z fikrlarini bildirdilar.

Shundan so'ng Turkiya jumhuriyati Ege davlat universiteti professori Selami Fidakor hamda Ozarbayjon Fanlar akademiyasi Qo'lyozmalar instituti katta ilmiy xodimi Elmira Mamedova-Kekech tomonidan elektron pochta orqali yuborilgan tabriklar namoyish etildi.

Konferensiya ishtirokchilarini tabriklash marosimidan so'ng yalpi majlis ma'ruzalari tinglandi. Yalpi majlisda "Epik ijodda motivlarning qiyosiy o'rganilishi masalalari" mavzusida filologiya fanlari doktori J.Eshonqulov, "Folklorida an'analar va yangilanishlar jarayoni" mavzusida Til, adabiyot va folklori instituti yetakchi ilmiy



tashkilotlardan kelgan mutasaddi rahbarlar konferensiya mavzusi to'g'ri tanlangani, folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o'rganishda fan va innovatsiyalarni uyg'un holda olib borish eng muhim masala ekanligi haqida o'z fikrlarini bildirdilar.

Yalpi majlis ma'ruzalaridan so'ng taklif va mulohazalar bildirish uchun O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti professorlari Beak Mun Jon, Ikuro Hiroyama, xalqaro madaniyat karvon saroyi direktori Farrux Usmonov, tarix fanlari doktori, professor A.Ashirovlar o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Yalpi majlisdan so'ng konferensiya o'z ishini quyidagi sho'balarda boshladi.

1-sho'ba: *Folklorning bugungi holati: nazariy muammolar va uning yechimi.*

2-sho'ba: *Lingvofolkloristika, til, adabiyot va folklor masalalari.*

3-sho'ba: *Xalq dostonlarining milliy madaniyatimizda tutgan o'rni.*

4-sho'ba: *Nomoddiy madaniy meros obyektlarining turizm infratuzilmasini shakllantirishdagi roli.*

5-sho'ba: *Etnografiyaning nazariy va amaliy masalalari.*

Sho'balarda mutaxassislar tomonidan mamlakatimizda va xorijda folklor, til va madaniyat masalalari bo'yicha olib

borilayotgan tadqiqotlar, erishilgan natijalari qiyosiy tahlil qilindi.

Ularni tizimli o'rganishda muhim yo'nalishlarni aniqlash, shuningdek, mamlakatimizdagi madaniyat va san'at yo'nalishlaridagi oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy tadqiqot institutlarida olib borilayotgan sohaga oid ilmiy mavzulardagi tadqiqotlarni rivojlantirishga ko'maklashish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, folklor san'atining o'ziga xosligi va sohada yuzaga kelayotgan muammolarni bosqichma-bosqich hal etish bo'yicha ilmiy-nazariy ko'rsatmalar berib o'tildi.

Konferensiya materiallari to'plam shaklida chop etildi.

O'ylaymizki, ushbu ilmiy-amaliy konferensiya folklor san'ati, til va madaniyatimizning noyob namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni keng targ'ib qilish, yosh avlod qalbida til, folklor, san'at va madaniyatga hurmat va yuksak e'tibor tuyg'ularini kuchaytirish hamda dunyo xalqlari o'rtasida xalqaro madaniy aloqalarni yanada mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

OyguL AHMEDOVA,
O'zDSMI dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi



publikamiz madaniyati va san'atini rivojlantirish borasida olib borayotgan islohotlar, ayniqsa, folklor, til va madaniyat masalalariga berilayotgan alohida e'tibor hamda folklor san'atini ravnaqi yo'lida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar, mavjud muammolar to'g'risida to'xtalib o'tdi.

Konferensiya ishtirokchilarini Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish bo'yicha agentligi rahbari Ali Ehson Chog'lar, O'zRFA Til, adabiyot va folklori instituti direktori, professor N.Mahmudovlar

xodimi, filologiya fanlari doktori Sh.Turdimov, "Oltin ko'priK" turk tili o'qitish kitoblarining xususiyatlari va madaniyatshunoslik jihatidan ahamiyati" mavzusida Qirg'iziston-Turkiya Manas universiteti professori Muhittin Gumush, "Hozirgi zamon she'riyatining til xususiyatlari" mavzusida Ozarbayjon til va adabiyot instituti tadqiqotchisi Jahongirli Ruslan ma'ruza qildilar.

Yalpi ma'ruzadan so'ng so'zga chiqqan O'zbekiston xalq artisti Yoqub Ahmedov, xorijiy olimlar, yuqori

С 29 апреля по 18 мая у вторых курсов нашего института проходила учебная практика. Студенты направления информатизация и библиотековедение были разделены на группы из 3-7 человек и распределены по библиотекам и информационно-ресурсным центрам (ИРЦ) при ВУЗах. Одна из групп в составе 3 студентов была направлена в библиотеку Международного Вестминстерского Университета в Ташкенте (МБУТ).

Библиотека (МБУТ) резко отличается от других ИРЦ по всему Узбекистану как внешне, так и своей структурой в целом. Первое, на что можно обратить внимание – все библиотеки на территориях ВУЗов Узбекистана классифицируются как ИРЦ, а библиотека МБУТ как УРЦ – учебно-ресурсный центр («LRC» на английском).

Что касается внешних особенностей, то они заметны невооруженным глазом: УРЦ состоит из двух отдельных зданий, находящихся на расстоянии 5-6 метров друг от друга, объединенных крытым переходом на втором этаже. Интересно то, что

сами сотрудники и студенты университета называют этот переход – «Sky-bridge» (дословно «Небесный мост»).

Если говорить об особенностях библиотечного фонда (БФ) УРЦ, то следует заметить, что он является открытым для всех читателей. Для библиотек учебных заведений Узбекистана данный подход считается уникальным и прогрессивным. Кроме того, размещение фонда в УРЦ МБУТ происходит согласно десятичной классификации Дью – ДКД («Dewey Decimal Classification» на английском), в то время, как прочие ИРЦ в стране используют ББК (библиотечно-библио-

ОСОБЕННОСТИ БИБЛИОТЕКИ МЕЖДУНАРОДНОГО ВЕСТМИНСТЕРСКОГО УНИВЕРСИТЕТА В ТАШКЕНТЕ



графическая классификация) и/или УДК (универсальная десятичная классификация), а вместо привычного библиотечного знака (авторский знак по Хавкиной) используются первые три буквы из второго имени первого автора, записанные прописными буквами. Подавляющее большин-

ство документов в фонде УРЦ (больше 90%) составляют учебные пособия на английском языке по таким дисциплинам, как экономика, бизнес, маркетинг и менеджмент, математика и т.д.

Интересным фактом является то, что все работники отдела обслуживания и информационной работы, а также отдела комплектования и обработки – мужчины, что для библиотек нашей страны тоже является крайне редким явлением.

Что касается обслуживания читателей, то оно происходит легко и незатруднительно как для читателя, так и работника абонементной библиотеки благодаря современным информационным технологиям. В системе УРЦ МБУТ отсутствует такое понятие, как

читательский билет. Вместо него они используют свои ID – карты, выданные университетом в качестве пропуска. Кроме того, в УРЦ существует строгая и действительно работающая система штрафов для читателей, не сдавших и не продливших документ вовремя.

Для студентов, проходивших учебную практику в УРЦ МБУТ это стало чем-то вроде стажировки за границей. Она позволила закрепить ранее полученный теоретический материал и получить новые знания и навыки.

Мартин ГРЕБЕНИЮК,
студент 2-го курса
направления «информатизация и библиотековедение»

Orzularim kabi oppoq bulutlar!



Orzularim osmon qadar...
 Nega orzular haqida gapirganda u samoga qiyos qilinadi? Balkim, insonlarning tilaklari tuganmas bo‘lgani uchundir. Chunki ko‘kda niyatlarimiz kabi sof va beg‘ubor oppoq bulutlar turli shakllarda namoyon bo‘lib dillarimizga quvonch bag‘ishlaydi.

Goh samolarda parvoz etayotgan tulpor, bizga tanish va notanish allaqanday shakllarda namoyon bo‘ladigan bulutlar, aslida, yozning jazirama kunlaridan berkinib moviy kengliklarga parvoz aylagan suvlardan dunyoga keladi. Jajji tomchilarga aylanib osmonu falakka yo‘l oladi. “Ahillikda gap ko‘p” deganlaridek, jipslashib bir butun bulutni hosil qiladi. Oradan kunlar, oylar o‘tib shamolning zarbasiga dosh berolmay oppoq qor, ba’zida esa ko‘z yoshlari kabi yomg‘ir bo‘lib yerga to‘kiladi-da, yana ona yer bag‘riga singib ketadi. Tabiatning mo‘jizasiga qarangki, bizga oddiygina bo‘lib ko‘ringan bulutlar aslida borliq muvozanatini saqlab qoladigan kuchga egadir.

Mahliyo SHOKIR qizi,
“Sahna va ekran san’ati dramaturgiyasi” ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Мамлакатимизда ижодкор ёшларга қаратилаётган эътибор кундан кунга ортиб бормоқда. Шунингдек, адабиёт, санъат ва маданият соҳаларига қизиқувчи, истеъдодли ва фаол ёшлар учун катта имкониятлар эшиклари аллақачон очилган. Жорий йилнинг 10-13 май кунлари қадим Хоразмнинг афсонавий Хива шаҳрида Ўзбекистон Ёш ижодкорлар кенгаши томонидан “Ўзбекистон баҳори” II анъанавий ижод фестивали кўтаринки руҳда ўтказилди.

ИНСТИТУТ ТАЛАБАЛАРИ ФЕСТИВАЛДА ҒОЛИБ БЎЛИШДИ

Хайъат аъзолари томонидан саралаб олинган иктидорли ёшлар ва меҳмонлар кўхна Ичанқалъа бағрида ёркин таассуротларга эга бўлишди. Фестиваль назм, наср, драматургия, тележурналистика, фотография, публицистика каби йўналишларда бўлиб, адабий учрашувлар, семинар-тренинглар, маҳорат дарслари, концерт, брифинглар каби унутилмас

совғаларга бой бўлди.

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти талабалари Сарвиноз Саксонова, Обиджон Рўзиев, Шавкат Дўстмуҳаммад, Достонбек Раҳматуллаев каби иктидорли ёшлар драматургия йўналишида фаол иштирок этиб, фахрли ўринларни қўлга киритишди. Шу билан бирга, ғолибларга Ўзбекистон Республикаси Театр



арбоблари уюшмаси томонидан ҳам махсус диплом ва эсдалик совғалари топширилди.


Фестиваль қатнашчилари очик осмон остида “Ўзбеккино” МА томонидан суратга олинган “Муҳаммад Термизий” бадий фильмини томоша қилишди, ёрқин хотиралар, унутилмас шукуҳлар ила ўз вилоятларига қайтишди.

Ўзбек театр ва кино санъатининг пойдевори бўлмиш драматургия йўналишида ижод қилаётган талаба-ёшларнинг асарлари театрларга тақдим этилиши режалаштирилди.

Олдинда янада катта марралар ва ютуқлар кутаётган ижодкор ёшларга омадлар тилаймиз!

ТАХРИРИЯТ

Жорий йилнинг 10 апрелида бўлиб ўтган «Олтин Ҳумо» миллий кинотакдимотида «Иссиқ нон» фильми «Энг яхши фильм» ва «Энг яхши сценарий» номинацияси бўйича ғолибликни қўлга киритди. Хўш, ушбу фильм нимаси билан инсон эътиборини тортади, меҳрини қозонади?



«ИССИҚ НОН»НИНГ ҳаётий ҳарорати

Бошқа айрим фильмларда учрайдиган кимматбаҳо жиҳозлари-ю, замонавий қизлар тасвирланганлиги биланми? Ёки, йигит бой-у, қиз камбағал, қайнона-келин можаролари каби мавзуси учунми? Йўқ, масала бутунлай бошқа жойда. Биз санаб ўтган сифатларимиз фильмда деярли учрамайди. Фильм, ўзининг содда қишлоқ одамлари, оддий уй, табиий табиат манзараси ва кўнгил кечинмаларининг нақадар инсонга танишлиги билан томошабинни сеҳрлайди. Фильм “Ўзбеккино” миллий агентлиги буюртмасига биноан “Ўзбек-фильм” киностудияси томонидан суратга олинган. Сценарий муаллифи ва режиссёр Умид Ҳамдамовнинг мазкур фильмида ҳаётнинг аччиқ ҳақиқатлари акс этган, дейишимиз мумкин. Ундаги рамзий ифодалар, бадий тасвир томошабинда ўзгача таассурот уйғотади.

Иссиқ нон — нон ҳолига келгунича тегирмонда туюлади, элакдан ўтказилиб, тоғорада муштланади, оловда тобланади. Бу эса ҳаётимизда учрайдиган тўсик, синовларни эслатгандек гўё... Туғиламиз, улғаярканмиз, ҳаётнинг турли зарбаларидан мушт еймиз, шаклланамиз, машаққатларда тобланиб, ҳаётимизни қуриб борамиз. Ноннинг чиройли пишиши учун юзига сув урилганидек, ҳаётимизда ҳам учраб турадиган айрим қувончларни айтмаса, ҳаётимиз синов, курашлардан иборат. Биз синовлар учун яратилганмиз. Бу йўлда бизга турли хил синовлар, алдов, тўсиқлар учрайди. Бундан қандай ўтиб боришимиз иродамизни, инсонийлигимизни тоблаб боради. Ушбу фильмда ҳам ҳаёт ёлғонларига, аввало, ўзини ишонтириш, борлиқнинг аччиқ ҳақиқатларига қарши тура олиш каби ғоялар илгари сурилган. Бироқ, масала, ундан қим қандай ўта олади? Дунёда қимда ғам-ташвиш йўқ дейсиз?! Фақат инсонлар бу ҳаёт зарбини қандай қарши оладилар. Қимдир узокларга қочмоққа уринса, яна қимдир кўра-била туриб бор аламини ичига ютади. Бу ўринда бош қаҳрамон Зулфия (актриса Зарина Эргашева) нинг ойиси ва келинойиси (актриса Феруза Сайидова)ларни мисол қилайлик. Ойисининг турмуши ўхшамаган, у иродасизлиги туфайли ҳатто ўз жигаргўшасини мактаб интернатга топширган. Қиз улғайиб, уни қидириб борганида уни илик кутиб ҳам олмайди. Келинойиси-чи, чекка қишлоқда, эски уйини таъмирлаб, нон ёпиб, бориға қўниб, ҳаётини изига туширишга ҳаракат қилиб, яшаб бораётган матонатли образ.

Нон — ҳаёт, ризқ белгиси. У зуваладан нон ясаб, шу ортидан тирикчилик қилади. Ҳаётини ўз қўллари билан яратади. У ҳатто, эри ҳақидаги бор ҳақиқатларни билса-да, билмасликка олади. Ҳаётига, турмушига ҳалол меҳнати ила турли рангларни сингдиришга уринади.

Айнан мана шу ҳаракати фильм ғоясига хизмат қилади ва кўплаб инсонларга ибрат бўла олиши билан аҳамиятлидир.

Зулфия-чи, ҳаёт аросатига маҳкум қиз. У ўзини ширин ҳаёлларига ишонтиришга қанчалик уринмасин, барибир, ҳаёт ўз

аччиқ ҳақиқатлари билан уни ўз домига тортиб бораверади. Зулфиянинг бувиси (Мунаввар Абдуллаева) ўзини қанчалик қаттиққўл тутишга уринмасин, бир умр муаллимлик қилиб, аммо, фарзандларини муносиб тарбиялай олмагани учун бор алами ичида. Ҳаёт ва ҳаёл ўртасидаги зиддият-контраст фильм таъсирини янада бойитиб, ривожлантириб борган. Бу борада сценарий муаллифи ва постановкачи режиссёр Умид Ҳамдамов ўзи кўзлаган фильмдаги бадий ва тасвирий мақсадига ета олган дейиш мумкин. Табиатнинг гўзал манзаралари томошабинда ўзгача кайфият уйғотади. Бу эса, оператор Жаҳонгир Ибрагимовнинг меҳнатлари самарасини муносиб кўрсатиб берган.

Фильмдаги ҳар бир образ устида алоҳида меҳнат қилинганлигини, ҳар бир деталнинг фильмда ўз маъно ва ўрнига эга эканлигидан билишимиз мумкин. Унда



кўплаб сермаъно рамзий топилмаларга дуч келамиз. Масалан, телефон яширилган шкафни олайлик. Унда бувисининг ҳаётидаги, ҳаёлидаги, бор сир-асорр яширинган. Ўғли ҳаёт эканлигини, аввало, келинидан, Наҳанг ютиб кетган деб ҳисобловчи маҳалла одамларидан сир тутишга тиришади. Нега айнан наҳанг? Бу эса, ўғлининг нафс қурбони бўлиб, ўз оиласидан Россияга кетиб, ўзга оила қуриб, нафс қурбони бўлганлигига нозик ишорадир. Зулфиянинг ёнида ўралашиб юрган, бемаъни қилиқ қилишни режа қилиб, ўртоқларини пойлашга ундамоқчи бўлган йигит-чи?

Жамиятда шундай инсонлар бор-ки, ўзларининг ҳаётдаги инсоний вазифалари қолиб, ўзларининг куракда турмайдиган ишлари билан шуҳрат қозонмоқчи бўладилар. Дўстларига «Бу қиз мендан қолган», дея аҳмоқона ишлари билан фахрланувчилар кам деб ўйлайсизми? Бу орқали режиссёр жамиятимиздаги мана шундай тубан кишиларга нозик ишора қилиб ўтгандек, назаримда.

Булардан ташқари фильмда қўлланган қўл билан сувалаётган ва бўялаётган уй, ранглар тўла қўл, иссиқ нон каби режиссёр топилмалари, рамзий тасвирлар фильмнинг бадий ғоясини тўлақонли очишга хизмат қилган. Фильмни кўрган томошабин, ўзида қандайдир шукроналик ҳиссини туяди, ҳаётга интилиши ошади, машаққатларга матонат ва сабр билан қарши тура олиш кўникмасини ҳосил қилади. Хулоса қилиш шунга айтиш мумкин-ки, фильм ижодкорлари ўзлари кўзлаган эзгу ғояларини тўлақонли очиб беришга ҳаркат қилган деб бемалол айта оламиз.

Робия ОТАХОНОВА,
“Кино санъати танқиди ва таҳлили”
йўналиши 2-босқич талабаси

O‘zbek xalqining milliy timsollaridan biri uning milliy-an’anaviy kiyimlari hisoblanadi. Milliy liboslarimiz ham moddiy va ma’naviy yodgorliklar kabi xalqimizning o‘ziga xosligini aks ettiradi va etnik belgilarini o‘zida namoyon etadi.

MILLIY DO‘PPI

BEZAKLARINING FALSAFASI



O‘zbek xalq amaliy san’atining eng ko‘p tarqalgan va ommalashgan turlaridan biri — do‘ppido‘zlik san’atidir. Do‘ppi o‘zbek milliy kiyim-boshlarining biri sifatida xalqimiz hayoti, an’alariga singib ketgan. “Do‘ppi” turkiy tildan olingan so‘z bo‘lib, “tepa” ma’nosini bildiradi. Uni Markaziy Osiyo va ayrim o‘rta Sharq mamlakatlarida, Afg‘oniston, Eron, Turkiya davlatlari va Volga bo‘yi tatarlarida ko‘proq uchratish mumkin. O‘zbekistonda Toshkent, Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun, Shahrisabz do‘ppilari mashhur bo‘lib, ular o‘ziga xos naqshlari bilan farq qiladi. Do‘ppilarning iroqi do‘ppi, chust do‘ppi, gilam do‘ppi, chakma to‘r, qizil gul, piltado‘zi, zardo‘ppi kabi turlari mavjud. Ularning qariyalar, erkaklar, ayollar, o‘g‘il bolalar, qizlar va emizikli go‘daklar uchun ham alohida turlari bor. Bolalar do‘ppilari tumor va ko‘zmunchoqlarga boyligi, popukliligi, asosan ipakdan to‘qilishi bilan ajralib turadi. Bundan maqsad ularni har xil nazar-nafasdan, yomon ko‘zlardan saqashdir. Bundan tashqari kattalar uchun tikilgan do‘ppi bezaklari va naqshlari



ham ma’lum bir ramzlarni anglatadi. Masalan, do‘ppilarimizda ko‘p uchraydigan bodom naqshi qut-baraka va hayot ramzini ifodalaydi. Bundan tashqari, bu naqsh achchiq bodomning shifobaxsh xususiyati va bahorning, go‘zallikning ilk darakchisi bo‘lgani uchun ham ramz sifatida tanlangan degan taxminlar yo‘q emas.

Do‘ppilarimizdagi elementlardan yana biri qalampir tasviridir. Bu ramziy jihatdan insonni yomon ko‘zlardan asrasin degan ma’noni

anglatadi va nafaqat do‘ppilarda, balki chopon-u to‘nlarda ham eng ko‘p foydalaniladigan naqshlardan hisoblanadi. Kashta do‘ppilar va boshqa kashtachilik buyumlarida ilon tasviridan

yomonlikdan asrovchi timsol sifatida ko‘p foydalanilgan. Chunki o‘tmishda ilonga sig‘inishgan, uning sehri, kuch-qudratiga ishonishgan. Ba’zi do‘ppilarda kiyik, qoplon, chayon kabilarning ham tasviri tushirilgan.

Do‘ppilarda xandasaviy naqshlar ham ommaviy bo‘lgan. Tik, ko‘ndalang chiziqlar va to‘g‘ri burchaklar chatishuvi komil uyg‘unlik deb qaralgan. To‘lqin-simon, sochma naqshlar obi-hayot ramzi bo‘lib, ular dehqonchilikda qut-barakani ifodalagan. Ba’zi do‘ppilarning naqsh kompozitsiyalarida arab yozuvi kashtaga uyg‘unlashtirilgan. Bu naqsh-yozuvlar o‘z vaqtida xalqni peshlash uchun xizmat qilgan.

Do‘ppining kvadrat shaklida bo‘lishi chiroyliligi, boshga kiyishda qulayligi bilan bir qatorda ramziy ma’noda borliqning to‘rt tomoni — osmon saroysi, quyosh farzandi, abadiylik va yorug‘likni bildirgan. Tepa qismida to‘rt qirraning bitta nuqtada birikishi esa Allohning yagonaligini anglatgan. Do‘ppining pastki qismida to‘rtburchak, ya’ni qubba-qubba shakllarning takrorlanishidan hosil bo‘lgan naqshlar qal’ani o‘rab turgan devorlarni eslatadi. Bunga boshni to‘rt tomondan — yomon ko‘z va ofatlardan saqlab, o‘rab turgan devor sifatida qaralgan. Ota-

bobolarimiz qadimdan boshlariga do‘ppi kiyganlarida, yoki boshqa birovga kiygazganlarida “Boshing omon bo‘lsin” — deya yaxshi niyyat qilishgan.

Do‘ppi ham amaliy, ham ma’naviy qimmatga ega. Amalda do‘ppi kishi-larning boshini oftobdan, shamoldan, issiqdan, sovuqdan asragan, odamning jismoniy kamchiligini yashirgan, bosh og‘rig‘i va shamollashining oldini olgan. Uning ma’naviy qimmatini esa ajdodlarimizning o‘lmas qadriyatlarining singdirishi, kishini ko‘rkam ko‘rsatishi va ularning qaysi millatga mansub ekanligini ko‘rsatib turganidir.

Turli bezaklarga boy va bir-biridan o‘zgacha bo‘lgan o‘zbek milliy do‘ppilari nafaqat, o‘zbek xalqining milliy liboslaridan biri, balki milliylikimiz yo‘g‘rilgan zamonaviy bosh kiyim sifatida ham saqlanib qoladi.

Feruza TURSUNXO‘JAYEVA,
“Sahna va ekran san’ati
dramaturgiyasi” yo‘nalishi
1-bosqich talabasi

QO‘RQMAGIN

Kimdir senga so‘zlamay qo‘yishidan qo‘rqmagin,
Haq so‘zingni yolg‘onga yo‘yishidan qo‘rqmagin,
Do‘sting bo‘lib pichoqsiz so‘yishidan qo‘rqmagin,
Yurak-bag‘ring tilkalab, o‘yishidan qo‘rqmagin.
**Faqatgina Ollohning qahridan qo‘rqib yasha,
Bir umr Olloh nomin dilingga o‘yib yasha.**

Goh yurib maqsad sari yiqilishdan qo‘rqmagin,
Kichik bir sinovdan ham qoqilishdan qo‘rqmagin,
Eng so‘nggi umidingni yo‘q qilishdan qo‘rqmagin,
Oxirgi tola kabi uzilishdan qo‘rqmagin.
**Faqatgina Ollohning karamin kutib yasha,
Olloh bergan hunarning yoqasin tutib yasha.**

Xato qilsang, odamlar kulishidan qo‘rqmagin,
Yulg‘ich-u nobakorning yulishidan qo‘rqmagin,
Yuraging barcha g‘amga ko‘nishidan qo‘rqmagin,
Yog‘och kabi tanangni yo‘nishidan qo‘rqmagin.
**Faqatgina Ollohning qahridan qo‘rqib yasha,
Bir umr Olloh nomin qalbingga o‘yib yasha.**

Qismating yaxshi-yomon bo‘lishidan qo‘rqmagin,
Qalbing dard-u hasratga to‘lishidan qo‘rqmagin,
Nodon kimsa xudoga solishidan qo‘rqmagin,
Kun kelib haq joningni olishidan qo‘rqmagin.
**Faqatgina Ollohning qahridan qo‘rqib yasha,
Bir umr Olloh nomin dilingga o‘yib yasha.**

Haq so‘zing bor dilingda, hur yashashdan qo‘rqmagin,
Vataning bo‘ston axir sen yashnashdan qo‘rqmagin,
Oqni oq, ko‘kni ko‘k deb, sen tanlashdan qo‘rqmagin,
Faqt Ollohni haq deb, sen sanashdan qo‘rqmagin.
**Yakka-yolg‘iz Ollohning qahridan qo‘rqib yasha,
Umrining so‘ngigacha Olloh-Olloh deb yasha.**

Shohrux ERGASHEV,
“Ashula va raqs” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

MÁDENIYAT HÁM KÓRKEM — ÓNERGE

BAĞDARLAW JOLÍDA

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2017-jil 3-avgustta elimizdñ dóretiwwshi-zıyalı wákilleri menen ushırasıwında: «Házirgi waqıtta Ózbekstan mámleketlik kórkem-óner hám mádeniyat instituti Nókis qalasındaǵı filialnıń tabıshı jumıs alıp barıp atırǵanı sizlerge belgili»-dep, institutimiz iskerligine unamlı pikir bildiriwi sonıń menen birge «Elimizde qansha balalar muzıka hám kórkem-óner mektepleri bar, házirgi waqıtta milliy ádebiyatımız benen kórkem ónerimizdñ belgili ǵayratkerleri atında jańa dóretiwwshilik oraylardı shólkemlestirip atırmız.

Jaslarımızǵa dóretiwwshilik sırların kimler qay dárejede úyretip atır? Belgili ǵayratkerlerimiz, jazıwshılar menen shayırlarımızdñ bul mektepler menen baylanısı qanday?» degen sorawdı ortaǵa taslap kópshilik mádeniyat tarawı xızmetkerlerin oylandırǵan edi.

Prezidentimizdñ pikir hám usınıslarınan kelip shıǵıp, jaqında Ózbekstan mámleketlik kórkem-óner hám mádeniyat instituti Nókis filialnıń bir qatar professor-oqıtıwshıları «Milliy miyras– biybaha baylıq» joybarı sheńberinde Kegeyli rayonı 11-sanlı Balalar muzıka hám kórkem-óner mektebinde jaslardı kórkem-ónerge, mádeniyatqa bolǵan qızıǵıwshılıǵın arttırıw, úgit-nasiyatlaw,kásipke baǵdarlaw, joqarı oqıw orınları menen birge islesiw baǵdarındaǵı jumıslardı elede jetilistiriw maqsetinde ushırasıw keshesi shólkemlestirildi.

Oǵan ÓZMKÓMI Nókis filialnıń oqıtıwshılarınan Ózbekstanda xızmet kórsetken artist M.Ismailova, «Rejissyor hám aktyor sheberligi» kafedrası baslıǵı

L.Urazmbetova, aǵa oqıtıwshı G.Bekniyazova ,«Zulfiya» atındaǵı mámleketlik sıyıqtıń laureatı, Qaraqalpaqstan xalıq baqsısı, «Doslıq» ordeni, Ózbekstan jaslar awqamınıń «Ózbekstan belgisi» kókre k nıshanı iyesi, docent G.Axımbetova ,Mádeniyat hám kórkem óner mekemelerin shólkemlestiriw hám basqarıw bóliminiń 2-kurs studentı A.Qolqanatov, Mektep direktorı M.Mamutov, direktor orınbasarı A.Aytımbetov hám oqıwshı jaslar qatnastı. Ilájdı M.Mamutov kiris sóz benen ashtı hám alıp bardı. Ol ózi basshılıq etip atırǵan muzıka hám kórkem óner mektebinde talantlı jaslarımızdı hár tárepleme qollap-quwatlaw, olardıń dóretiwwshilik penen shuǵıllanıwına barlıq sharayatlardı jaratıp beriw, ustaz-shákirt dástúrin jolǵa qoyıw tiykarǵı wazıypalarınan biri ekenligin, sonday aq, filial menen sheberlik sabaqların ótiw, doslıq hám birge islesiw qatnasıqların qalıplestiriw zárurlıǵın atap, bul baǵdarda birge islesiwge shaqırıp qaldı. Óz gezeginde miymanlar shólkemlestiriwshilerge minnetdarshılıǵın bildirip, mekteptegi oqıwshılardı jaratılǵan imkaniyat hám shárayatlar menen tanıstı. Keshe oqıwshılardıń ózlerin qızıktırǵan soraw-juwaplar menen dawam etip, mektep oqıwshıları tárinen shólkemlestirilgen koncert baǵdarlaması menen juwmaqlandı.

Asılbek QOLQANATOV,
ÓZMKÓMI Nókis filialı Mádeniyat hám kórkem óner mekemelerin shólkemlestiriw hám basqarıw bóliminiń 2-kurs studentı, Filial Jaslar awqamı baslanǵısh shólkem jetekshisi

Muassis:

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Bosh muharrir:
Nafisa RAIMQULOVA

Tahrir hay’ati:
Go‘zal XOLIQULOVA
Hamdam ISMOILOV
Antonino KOSHELEVA
Rashid USNATOV
Mas’ul kotib:
Alimurod TOJIYEV

Muxbirlar klubi sardorlari:
Muharram BOZOROVA
Shavkat DO‘STMUHAMMAD

Tahririyat manzili: 100025 Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (0-371) 230-28-13.
www.dsmi.uz; nashriyot@dsmi.uz

Gazeta har o‘ying oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: O‘rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash‘al mahallasi, Markaz –1.

Sahifalovchi:
Dilmurod DO‘STBEKOV

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo‘limida tayyorlandi.
O‘lchami – A3, hajmi 2 bosma taboq.
Nusxasi – 700 dona. Narxi kelishilgan narxda.
Chop etishga 28.05.2019 yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro‘yxatga olingan.